

QO'SHMA GAP QISMLARI VA ULARNI BOG'LOVCHI VOSITALAR

Turdiyev Xurshid Abdumurodovich

Surxondaryo viloyati oltinsoy tumani 54-sonli maktabning ona tili adabiyot fani o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiy tilining muhim bo'lagi hisoblangan qo'shma gap va uning tarkibiy qismlari haqida batafsil ma'lumot taqdim etilgan. Grammatikada asosiy bo'lim hisoblangan qo'shma gaplar mavzusi juda katta bo'lganligi sababli mazkur maqolada qo'shma gap uning bo'g'lovchi tarkibiy qismlariga qisqa va tushunarli yondashgan holda mulohaza olib borildi.

Kalit so'zlar: Qo'shma gaplar, grammatik shakl, boog'lovchi, murakkab qo'shma gap, sodda gaplar, kesimlik belgisi, yuklama, ko'makchi, bog'lovchi.

KIRISH

Bitta kesimlik belgisiga, mazmuniy va ohang tugalligiga ega bo'lgan gap sodda, ikki va undan ortiq suda gaplarning grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan butunlik qo'shma gap deyiladi. Gap uchun muhim belgi kesimlikdir. Kesimlik belgisining miqdori gaplarni sodda va qo'shma gaplarga ajratishga asos bo'ladi.

Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar:

- teng bog'lovchilar;
- ergashtiruvchi bog'lovchilar;
- nisbiy so'zlar;
- ko'makchili qurilmalar;
- shart mayli qo'shimchasi;
- yuklamalar;
- ohang.

Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplar 3 xil:

- bog'langan qo'shma gap
- ergashgan qo'shma gap
- bog'lovchisiz qo'shma gap

Ergash gapning kesimi shart mayli shaklidagi fe'llar orqali ifodalanganda shart mayli qo'shimchasi ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita hisoblanadi.

Bosh gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshi ma'nosini izohlash uchun qo'llangan ergash gaplar bosh gapga –ki yuklamasi yordamida bog'lanadi. Bosh gapga shart mayli qo'shimchasi yordamida bog'langan ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning yuzaga chiqish shartini yoki paytini bildiradi. Bosh gapda ifodalangan mazmunning maqsadini, sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga deb so'zi yordamida bog'lanadi.

Qismlari teng bog'lovchilar, bo'lsa, esa so'zlari, -u, yu, -da yuklamalari yordamida bog'langan gaplar bog'langan qo'shma gaplar deyiladi.

Biriktiruvchi bog'lovchilari va, hamda, shu bog'lovchilar vazifasidagi -u, -yu, -da yuklamalari yordamida bo'g'langan gaplar payt, sabab-natija munosabatini bildirib keladi.

Zidlov bog'lovchilari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga, ular o'rtasida zidlik munosabati mavjudligini ham bildiradi. Ayiruv bog'lovlovchilari qo'shma gap qismlarini bo'g'lash bilan birga voqea hodisalarning galma -gal ro'y berishini yoki ulardan biri amalga oshishini bildiradi. Bosh gapda ifodalangan mazmunning sababini bildiruvchi ergash gaplar bosh gapga shuning uchun, shu sababli, shu tufayli kabi ko'makchili qurilmalar yordamida bog'lanadi.

Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar bosh gapga sabab-chunki, negaki maqsad-toki shart-agar, basharti, mabodo qiyoslash-chog'ishtiruv-go'yo, xuddi bog'lovchilari yordamida bog'lanadi.

Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar bosh gapda ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, shartini yoki qiyosini bildiradi.

Ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositalar:

- ergashtiruvchi bog'lovchilar;
- ko'makchili qurilmalar;
- yuklamalar;
- nisbiy so'zlar;
- shart mayli shakli.

Qismlari ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shu bog'lovchilar vazifasidagi so'zlar yordamida bog'langan qo'shma gaplar ergashgan qo'shma gaplar deyiladi. Bo'lsa, esa so'zlari qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida qiyoslash, zodlash munosabati mavjudligini ifodalaydi. Bo'lsa, esa so'zlari qiyoslanuchi bo'lakdan keyin keladi. Tarkibida ko'rsatish olmoshi mavjud bo'lgan ergash gapli qo'shma gaplar sodda gaplar bilan ma'nodosh bo'ladi. Bunda ergash gap ko'rsatish olmoshi o'rniga qo'yiladi. Ergash gap tarkibida qo'llanuvchi kim, nima, qancha, qanday, qayer kabi so'roq olmoshlari bosh gap tarkibida shu, o'sha, shuncha, shunday olmoshlarini talab qiladi. Bosh gap tarkibida ega vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlagan ergash gap ega ergash gap deyiladi.

Ega ergash gap bosh gapga nisbiy so'zlar (-kim -o'sha, qayer-o'sha yer kabi) yoki bosh gap tarkibidagi - ki yuklamasi yordamida bog'lanadi. Bosh gap tarkibidagi kesim vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab keluvchi ergash gap kesim ergash gap deyiladi. Hol ergash gaplar o'z ichida payt, o'rin, sabab, maqsad, shart, daraja-miqdor ergash gaplar singari turlarga bo'linadi. Hol ergash gap bosh gapda ifodalangan mazmunning sababi, maqsadi, sharti, payti, holati, miqdor-daraja ma'nolarini bildiradi.

Tarkibidagi sodda gaplar bog'lovchi vositalarsiz faqat ohang yordamida bog'langan gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplar deyiladi. Qo'shma gap qismlari bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'ladigan voqea, hodisalarni ifodalasa, ular orasiga vergul qo'yiladi. Qo'shma gap qismlari orasida o'xshatish, zidlash, shart munosabatlari ifodalansa, ular orasiga tire qo'yiladi. (hamal keldi-amal keldi) Bosh gap tarkibida aniqlovchi vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlagan gap aniqlovchi ergash gap deyiladi.

Bosh gap tarkibida to'ldiruvchi vazifasida qo'llangan ko'rsatish olmoshining ma'nosini izohlab kelgan gap to'ldiruvchi ergash gap deyiladi. Birovning aynan keltirilgan gapi ko'chirma gap deyiladi. Ko'chirma gap doimo muallif gapi bilan qo'llanadi. So'zlovchining gapi muallif gapi hisoblanadi. Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilganida uning kesimi to'ldiruvchiga, egasi qaratqich aniqlovchiga aylantiriladi. Muallif gapining kesimidagi dedi so'zi

aytdi so‘zi bilan almashadi. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma‘lum soha doirasiga, ma‘lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko‘rinishi nutq uslubi deyiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Nargiza Erkaboyeva. O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami.-T. 2019.
2. Kaushanskaya V.I. et al. A Grammar of the English Language. - L., 1963
- 3.Abdulhamid Nurmonov. Tilshunoslikning nazariy va amaliy muammolari bo‘yicha tanlangan maqolalar.
4. Hosseini Khalid. A thousand splendid suns. New York. 2007.
5. O‘tkir Yusupov. Ingliz va o‘zbek tillarining chog‘ishtirma lingvistikasi. - T.,2013.